

2P

3

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

№:7 (67016)
2015-yil
16-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

ORZULAR SARI QADAM

4-bet



Ushbu sonda:

**AJDODLAR
SIYMOSI –
AVLODLAR
NIGOHIDA**

2-sahifa

– Kelajakka o'z bilimimiz va salohiyatimiz bilan dadil qadam tashlaymiz, –
deydi Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 72-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari

**KITOBXON
QIZ**

6-sahifa

**BARAKALLA,
HUSANBOY!**

7-sahifa

BUYUKLAR YASHAGAN YURT


Har kuni maktabga yo'l olarkanman, oyim: «Yaxshi o'qig'in, qizim, bizni uyaltirib qo'yma», deb tayinlaydi. Dastlab, bu gapning mag'zini chaqa olmay, men yaxshi bahoga o'qimasam, dadam bilan oyim nega uyali b qolisharkan, deb o'ylardim. Ammo borgan sari yuqoridagi so'zlarning ma'nosini tushuna boshladim.

Yaqinda yurtimiz bo'ylab bobomiz Alisher Navoiyning 574 yilligi keng nishonlandi. Biz ham bu sanaga bag'ishlangan tadbirida alloma g'azallari, tuyuq va ruboiylaridan yod oldik. Oybekning «Alisherning bolaligi» nomli asari asosida tayyorlanayotgan sahna ko'rinishi jonli va chiroyli chiqishi uchun bu asarni qayta-qayta o'qib chiqishimga to'g'ri keldi. Undan bobomizning yoshligi haqida juda ko'p ma'lumotlarni bilib oldim.

Biz buyuk siymolar, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topgan insonlar yurtida yashayapmiz. Davlatimizning biz yoshlarga bildirayotgan ishonchini oqlashimiz uchun yaxshi o'qishimiz, imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak. Toki, bizning o'qishimiz, xulqimizdan nafaqat ota-onalarimiz, balki bobokalonlarimiz ham uyali b qolishmasin.

Maftuna SIROJIDDINOVA,

poxyatimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilli mehnat ta'limiga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi



NOAN'ANAVIY

DARS SOATI

Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimonidir.

Diqqatlari darsga qaratilgan o'quvchilar o'qituvchidan shoh va shoir haqidagi boy fikrlarni tinglab, doska oldida turgan uning salobattli suratiga faxr bilan termilib qolishdi.

Shundan so'ng, ustoz Bobur tavalludining 532 yilligi yurtimizda iftixor bilan nishonlanayotgani haqida xabar beradi, videolavha orqali shoir siymosi gavdalandi.

**Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jaf o qilsa, jaf o topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.**

Shoirning g'azal va she'rlarida yaxshilikning sharofati, yomonlik oqibatlari, vafoga vafoning qaytajagi betakror misralar orqali ochib berilganligi aytiladi. Shoir ruboiylarida Vatan sog'inchi, ona diyorni qo'msash, yurtga mehr-muhabbat asosiy o'rinni egallashi muallima tomonidan bayon qilindi.

O'quvchilardan Malika, Shuhrat, Dildora ruboiylardan, Shahzoda, Javohir, Muqaddam g'azallardan parchalar yod oldilar.

Dars rejasiga ko'ra Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan sahnalashtirilgan parcha o'quvchilarni shoir hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Sahnada sarkardaning «Boburmoma» asarining yaratilishiga doir ma'lumotlar aks ettirildi.

Keyingi parchada Boburning o'g'li Humoyunga otalik mehri aks etgan bo'lib, ota o'g'lining shifo topishi uchun unga o'z jonini sadqa qiladi. O'quvchi ko'z o'ngida Bobur nafaqat betakror shoir, balki mehribon ota sifatida ham namoyon bo'ldi.

Bobur obrazini Maqsudxo'ja, Xondamir qiyofasini Fayozbek, Humoyun timsolini Abdullaxo'ja, Shayx obrazini Jonibek mahorat bilan ijro etishdi.

Uy vazifasi tariqasida o'quvchilarga Bobur g'azallaridan yod olish topshirildi.

Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani muallimasi Sanobar Hamroyeva tomonidan 5-«B» sinfida tashkillashtirilgan noan'anaviy dars o'quvchilar qalbid a Mirzo Boburga yuksak ehtirom, Vatanni suyib yashash vazqini berishi, shubhasiz.

OLMOS

Ajdodlar siymosi - Arvadlar nigohida

Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani maktablari va tahririyatimiz o'rtasida ijodiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu bois bo'lsa kerak, tuman maktablaridagi ko'plab xayrli tadbirlardan doimo boxabarmiz. Kuni kecha 57-umumta'lim maktabida «Ajdodlarimiz merosini o'rganish burchimizdir» shiori ostida ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Fidoiy ustoz Shahnoza Mirzaahmedovaning shogirdlari Rahmatjon Rahmatjonov, Shokir Mahmudov, Dostonbek Jo'rayev, Sevara Saidakbarova, Asadbek Abdukurimov, Shahboz Ro'ziqulov she'riyat olami sultoni Alisher Navoiyning hayot yo'li, ijodi, o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasiga doir qimmatli va qiziqarli ma'lumotlarni tengdoshlari hukmiga havola etdi.

Tadbirida ishtirok etgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Muhayyo To'laganova buyuk bobomiz qalamiga mansub:

Tuxum yerga kirib chechak bo'ldi,

Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.

**Lola tuxumicha g'ayrating yo'qmi,
Ipak qurticha himmating yo'qmi?..**

satrlarini o'qiganida, zalga ajib sokinlik cho'kdi. Shu tobda bolajonlar qalbid a bilim olishga ishtiyiq yanada uyg'onib, g'ayratiga g'ayrat qo'shilgan bo'lsa, ne ajab?!

Andijon.

Umarshayx Mirzo saroyi.

... Beshikda oydek bo'lib pahlavon go'dak jilmayib yotibdi.

– Zahiriddin Muhammad, – dedi Umarsayx Mirzo.

– Qutlug' bo'lsin ulug'larning ismi, – dedi Yunusxon kulimsirab. – Nasib etsa, insho'alloh, yo'lbarsdek bahodir bo'lg'usidir. Shunday ekan, Bobur – yo'lbars, deb chaqirsak ham bo'ladi.

Umarshayx Mirzo yalt etib unga qaradi va:

– Yo'lbars?! Xon ota, yo'qsa, ismini Zahiriddin Muhammad Bobur, deb ataylik, – dedi hayajonlanib.

Navbatdagi tadbir ana shunday sahna ko'rinishi bilan boshlandi. Boburning go'dakligi haqidagi sahna ko'rinishi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Jasur Pirmatov buyuk sarkarda rolini qoyilmaqom ijro etdi.

2-, 3-, 4-sinflarning faol o'quvchilari Behruz Ziyayev, Iroda To'liqinova, Robiya Nurxo'jayeva, go'zal raqslar ijrochisi Dilnoza Atajonova Bobur ijodidan namunalar aytdilar. Eng asosiysi, bugun ular ikki ulug' siymo haqidagi go'zal xotiralar bilan uylariga qaytdilar. To'lib-toshib bugungi tadbir haqida yaqinlariga so'zlab berdilar. Fidoiy ustozlarning sa'y-harakatlari, maqsadlari ham shu edi, aslida.

O'z muxbirlarimiz



Toshkent bank kollejida o'tkazilgan «Navoiyxonlik kechasi»da o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan tarixiy asar tadbir ishtirokchilarini alloma davriga yetakladi.

Zulfiya tavalludiga 100 yil Barhayot siymo

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 264-umumta'lim maktabida Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab «She'riyat yulduzi» kechasi bo'lib o'tdi.

Tadbirni Nargiza Qurbonova ochib berarkan, e'zozli shoira-mizning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni borasida qiziqarli ma'lumotlarni qatnashchilar e'tiboriga havola qildi. Maktab direktori Dilfuza Madrahimova esa ta'lim maskanida adabiyot fani doirasida o'tkazilayotgan maxsus darslar hamda ularda Zulfiya hayoti va ijodining yoritilishi haqida so'zlab, o'quvchilar tayyorlagan maxsus dastur tomoshasiga taklif etdi.



Tadbir davomida maktab o'quvchilari shoira she'rlaridan ifodali o'qib, hayotiga doir sahna ko'rinishlarini ijro etdilar.

«Xalqimizning suyukli shoirasi ijodi bilan yaqindan tanishish menga o'zgacha zavq bag'ishladi. Ayniqsa, uning she'rlarini yod olganimda, vujudimni allanechuk hayajon qamrab olgandi, – deydi taassurotlardan to'liqlanib 5-«A» sinf o'quvchisi Mubina Komiljonova.

Kecha so'ngida tuman xalq ta'limi bo'limidan Sanoat Ismatullayeva bu kabi tadbirlar o'quvchi-yoshlarning o'zbek adabiyotiga doir bilimlarini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlab, ilg'or adabiyot o'qituvchilariga esdalik sovg'alari topshirdi.

Alisher FAYZULLAYEV

MEHR YOG'ILGAN DARGOH

Bugungi kunda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uzluksiz ta'limning yagona tizimini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni hal etishda asosiy dasturulamalar bo'lgani bilan ahamiyatlidir.

– Ta'lim muassasamiz ham ayni shu dastur asosida mukammal ta'mirdan chiqarildi, – deydi Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyi direktori Kamoliddin Yoqubov. – Natijada bino to'liq ta'mirlandi. Axborot-resurs markazi yangi kitoblardan boyitildi, o'quv zali so'nggi rusumdagi kompyuter jamlanmalari bilan to'liq jihozlangan. Maskanimizda sport, fan va hunarga oid to'garaklar yo'lga qo'yilgan. Bu o'quvchilarimizning ham jismoniy, ham intellektual jihatdan kamolga yetishini ta'minlaydi.

Muxtasar aytganda, Mehribonlik uyida amalga oshirilayotgan ezgu sa'y-harakatlar yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lib ulg'ayishlariga hamda iqtidorlarini namoyon etishlariga xizmat qilayotir.

Muhammadjon MAHMUDOV,

Marg'ilon shahri

21-FEBRAL - XALQARO ONA TILI KUNI

Aziz tengdoshlar, dunyoda nechta til borligini bilasizmi? Oxirgi tadqiqotlarga ko'ra, yer yuzida 6000 ga yaqin til mavjud.

Yer yuzida 21-fevral – Xalqaro ona tili bayrami sifatida nishonlanadi. Bu sananing belgilanishiga sabab, kurramizdagi turli millatlarining mavjud tillari yo'qolib ketmasligidir.

Yurtimizda 130 nafardan ortiq millat vakillari ahil-inoq istiqomat qilishadi. Dini, irqi va e'tiqodidan qat'iy nazar, ular milliy urf-odatlariga amal qiladilar, diniy marosimlarini o'tkazishlari, ona tillarida erkin so'zlashishlari ta'minlangan. Mamlakatimizda «Baynalmilal markazi» tashkil qilingan bo'lib, bu yerda har bir bayram o'zgacha shukuhda nishonlanadi. Yurtimizda barcha millat vakillarining maqsad-u maslaklari bir: tinch-totuv, xotirjamligimizga ko'z tegmasin, mamlakatimizda turli tillardagi qo'shig' -u alyorlar yangrayversin!

Odina SAHOBIDDIN qizi,

Yunusobod tumanidagi

96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

5-«A» dan 4 maktub

Safarali ATARBOYEV:

– Men «Tong yulduzi»-ning barcha sahifalarini miriqib o'qiyman. Undagi o'zbek, ingliz tilidagi boshqotirmalar menga juda yoqadi. Bizning puxta bilim olishimizda sevimi nashrimning o'rni beqiyos.

Abdulhamid KARANOV:

– «Tong yulduzi»ga har yili obuna bo'laman. Undagi hikoya, ertak, she'rlarni maroq bilan o'qiyman. Ingliz tilidagi sahifa esa chet tilini o'rganishimda yaqindan ko'mak bermoqda. Gazeta orqali respublikamizdagi tengdoshlarim bilan do'stlashsam, deymen.

Muhriddin LOLAYEV:

–Maktabim juda ko'rkam. Ayniqsa, kutubxonamiz kitoblarga boy. U yerga kirsam, o'zimni xazinalar olamida yurgandek his qilaman.

Nafisa ESHBOYEVA:

– Matematika, ona tili, tarix va ingliz tiliga qiziqaman. She'r yodlashni yaxshi ko'raman. To'qishni ham o'rganayapman. Sahifalaringdagi tengdoshlarim ijodiga havasim keladi va bu havas meni she'r yozishga undadi:

Ko'm-ko'k musaffo osmon,

Gulla, yam-yashil bo'ston.

Yashnayapti to'rt tomon,

O'zbekiston, onajon!

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi

4-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchilari

50 IMKONIYATDAN BALL

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 31-IDUMI 7-«A» sinf o'quvchisi Dostonbek Tursunboyev ana shunday iqtidor egalari. U bilimga chanqoqligi, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi bois, tezda o'qituvchilar e'tiboriga tushdi. Fanlarni a'loga o'zlashtiruvchi o'quvchi, ayniqsa, matematika faniga o'zgacha mehr qo'ygan. Darsdan bo'sh vaqt topdi, deguncha uni ustoz Abdusattor Umarqulovning xonasidan topasiz.

Dostonbekning matematika borasida qo'lga kiritgan yutuqlari haqida gap ketganda, uning o'tgan o'quv yilidagi muvaffaqiyatlarini alohida e'tirof etish dardkor. Yosh matematik 2014-yilda «Bilimlar bellashuvi»ning tuman hamda viloyat bosqichlarida 100 ball to'plab, 1-o'rinni, respublika bosqichida esa 2-o'rinni egalladi.

Bellashuv taassurotlarini tengdoshlari bilan o'rtoqlashar ekan, iste'dod egasi shunday deydi:

– Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan bilimdon, zukko o'quvchilarni ko'rib, avvaliga juda hayajonlandim. Ammo ustozim, tengdoshlarimning menga bildirgan ishonchi dalda bo'ldi. Ustozimdan olgan bilimlarimni sinovdan o'tkazish vaqti kelganligini his qildim. Yozma ishda 50 imkoniyatdan 50 ball to'plab, navoiylik tengdoshim bilan 1-o'rinni egalladik. Test savollarida esa 50 imkoniyatdan 46 ball to'pladim, navoiylik raqibim esa 48 ball bilan 1-o'rinni egalladi.

Dostonbek Tursunboyevning orzusi bu yilgi «Bilimlar bellashuvi» respublika bosqichida birinchilikni olish. Dostonbekning so'zlariga ko'ra, uning barcha muvaffaqiyatlari siri faqat puxta o'qishda ekanligini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizga o'tkir bilimi, yuksak ma'naviyati bilan doston bo'lgulik Dostonbeklarimiz yanada ko'payaversin!

Dilbar IBODOVA,

matematika fani o'qituvchisi



Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining bugungi kunda erishayotgan yutuqlari faxrlanishga arziydi. Yigit-qizlarimiz Vatan taraqqiyoti, yurt farovonligi yo'lida tashabbuskorlik bilan yangilikka intilib, o'qib-o'rganmoqda, ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

MUNOSIB TUHFA

Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir tumanida qad rostlagan 17-bolalar musiqa va san'at maktabi qoraqalpog yoshlariga munosib sovg'a bo'ldi.

– Maktabning ochilishi san'atga oshufta bolajonlarning bir quvonchiga o'n quvonch qo'shdi, – deydi maktab direktori Ziba Allaniyazova. – Ta'lim maskanimizda fortepiano, torli cholg'ular, estrada, folklor, xalq cholg'ulari, rassomlik, teatr, xoreografiya bo'limlari mavjud bo'lib, unda 187 nafar o'quvchi tahsil oladi. O'quvchilarimizdan Dinara Maratova, Miyirxan Otaxonova o'tgan yili o'tkazilgan «Istiqlol g'unchalari» ko'rik-tanlovida sovrinli o'rinlarga sazovor bo'lishdi. Ayniqsa, «Kamalak yulduzlari» ko'rik-tanlovida 5-sinf o'quvchisi Diana Abdiyevaning baxshichilik yo'nalishi bo'yicha ishtirok etishi barchamizni quvontirdi.


O'zbek hamda qoraqalpog' kuylari uyg'unlashib, ohanglari olis manzillarga taralayotgan ushbu maskandan kelgusida qoraqalpog' xalqining dong'ini dunyoga taratuvchi san'atkorlar yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.



Ozoda TURSUNBOYEVA

«Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur», deganida Yurtboshimiz nechog'li haq edi. Sog'lomlik nafaqat jismda, balki fikr, dunyoqarash, komillikda ham shakllanadi. Mana shunday komillik sari intilayotgan yoshlarimizdan biri Xurshid Turg'unboyevidir.

ORZULAR SARI QADAM



U O'rta Chirchiq tumanidagi 72-IDUMning 9-sinf o'quvchisi. Uning matematika faniga qiziqishi katta. Joriy yilda fan olimpiadasining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi va hozirda tanlovning ikkinchi bosqichiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Bunday yutuqlarga erishishimda, eng avvalo, ustozlarim Bahodir Parpiyev, Xurshida Mamajonovaning mehnati cheksiz. Qolaversa, maktabimiz qoshidagi «Qiziqarli matematika» to'garagi rahbari Tursunboy Yo'ldoshev bilan internet saytlari orqali xalqaro olimpiadaning matematika masalalari ustida ham ishlaymiz. Kelajakda men ham xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, mamlakatimiz sharafini himoya qilishni istayman, – deydi Xurshid.

Iqtidorli o'quvchi Xurshid Turg'unboev maskandagi dars soatlari va to'garaklardan tashqari xalqaro olimpiada oltin medali sohibi H. Egamberganovdan matematika sirlarini o'rganmoqda. Xurshid bilan suhbatlashganimizda odobli, kamtarin bu iste'dod egasida O'zbekiston ilm-taraqqiyoti rivojiga munosib hissa qo'shadigan yigit timsolini ko'rdik.

Nurbek QIDIRALIYEV

SHOIRGA BAG'ISHLANGAN DARS

Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida tez-tez «Ijodkorlar darsi» o'tkazib turiladi. Yaqinda shoira Nodira Rashidova 5-sinf o'quvchilari uchun Usmon Nosir hayoti va ijodiga bag'ishlangan darsni o'ttib berdi.

Adabiyot fani o'qituvchisi Muxtasar Umarova shoir haqida hikoya qiluvchi slaydlarni namoyish etdi. So'ng, shoira tog'asi Usmon Nosir, uning oila a'zolari, shoir surgun qilingan yurt – Magadan o'lkasiga qilgan safari haqida so'zlab berdi.

O'quvchilar Sarvar Vahobov, Begzod Ziyovuddinov, Xadicha Rixsiboyeva, Rohila Qosimova, Abdulloh Xalilov shoir she'rilaridan ifodali yod aytdilar. Dars mazmunli va maroqli o'tdi.

PAZANDALAR BELLASHGANDA

Yurtimizdagi umumta'lim maktablarida tashkil etilgan «Orasta qizlar» klubi o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularni pazandalik, tikuvchilik, muomala madaniyatiga o'rgatish borasida bir qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Yaqinda Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 9-sinf qizlari ishtirokida ustozlari Mahfuza Qosimova, Gulnora Ibragimova, Dilorom Mo'minova boshchiligidagi «Xamir xola maktabi» tadbiri bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar norin, besh barmoq, gulxonim, kulchatoy kabi xamirli taomlarni tayyorlab, o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Ayniqsa, Ozoda Karimova, Sevara Mahkamxo'jayeva hamda Feruza Zikrillayeva tayyorlagan taomlar barchaga manzur bo'ldi.



Muzaffar AHMEDOV

N. SULTONOV olgan suratlardir

USTOZNING HAYOT YO'LI

Jizzax tumanidagi 42-umumta'lim maktabida «O'rgat-o'rgan», «Ustoz-shogird» an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Maskanda o'quvchilarni jondan sevadigan, talabchan o'qituvchilar juda ko'p. Shunday jamoatchi, yangilikka intiluvchan 1-toifali ustoz Ortiqali Toshtemirov, mana 15 yildirki, yoshlarga tarix va huquq fanidan saboq berib kelmoqda. Muallim o'zi hali yosh bo'lsa-da, hamma vaqt jamoaga kelgan yosh hamkasblariga metodik yordam ko'rsatib, ko'plab shogird yetishtirishga ulgurdi. Ortiqali aka har bir darsni yangi pedagogik texnologiya asosida o'tadi, shundan bo'lsa kerak, har yili «Bilimlar bellashuvi», «Fan olimpiadalari» hamda «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovida maktab o'quvchilari viloyat bosqichida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, joriy yilning 4–5-yanvar kunlari bo'lib o'tgan olimpiadada tarix fani bo'yicha 9-sinf o'quvchisi Hojiakbar Abdurahimov yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

– Tarix faniga qiziqishimga, avvalo, ustozim sababdir, – deydi Hojiakbar. – Ularning tarixdan, o'tmishdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash bugungi hayotimizning qat'iy talabidir, degan so'zlari hamisha qulog'im ostida jaranglaydi.

O'quvchilarning ustozlari haqidagi samimiy fikrlarini eshitib, xursand bo'ldik. Iste'dodli, izlanuvchan o'quvchilarga bilim cho'qqilarini zabt etish uchun qanot bo'layotgan fidoyi ustozlar omon bo'lsin!



N. NURALI o'g'li

Lesson 23

Comparison of Adjectives (Sifat darajalari)

A) Fill the spaces with the correct form of the adjectives.

POSITIVE COMPARATIVE SUPERLATIVE

noisy		
	thicker	
		cleanest
	younger	
clumsy		



B) Underline the adjective that makes each sentence correct.

- A is (fast, faster, fastest) than a bicycle.
- The are the (large, larger, largest) of all animals.
- The is (bright, brighter, brightest) than the moon.
- Xurshid is a (strong, stronger, strongest) man.
- are (small, smaller, smallest) than dogs.

C) Compare the following pictures using the three degrees of adjectives.

- Thick
- Tall taller
- Small

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Riddles (Topishmoqlar)

I have a good friend
It teaches me to think
I love read very much
Its name is . . .



We are five brothers
Live always together,
We are very friendly
Arm is our mother.



Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,
Farg'ona viloyati «Qaldirg'och»
to'garagi a'zosi

My granny (Buvijonim)

You are sunshine as a sun my granny,
You open your hand for pray my granny.
You said «your way will be bright»,
When you come to embrace us my granny.

Your face always full with rays,
The grandchildren respect for you.
Your heart will fill with joy with our success,
Congratulations, your sixty two years.



Muxlisa TO'YCHIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Angren shahar,
27-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Is it food or drink? (Ichimlikmi yoki yegulik?)

Using these words fill the both tables:

Coffee, cherry, beetroot,
pumpkin, milk, soap,
sweets, black tea, water,
fried egg

Food	Drink
fried egg	

Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Test your English

1. My shoes very dirty.

- am
- is
- are



2. Hilola and I playing tennis.

- is
- are
- am



3. My bed very comfortable.

- is
- am
- are



Sevara SHERQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi
12-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

Check yourself (O'zingizni sinab ko'ring)

Match the verbs in A with a line B:

A	B
Get up	in a chalet
Go	cards
Watch	milk
Listen to	a good time
Play	a CD
Stay	in a hospital
Work	sailing
Cook	a meal
Eat	in restaurants
Have	early
Drink	a video

Farangiz RAHIMOVA,
Yunusobod tumanidagi 250-umumta'lim
maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

Erkin QAMBAR

EY, VATAN



Onajonim, ey Vatan,
Jonajonim, ey Vatan.
Baxting uchun to abad,
Fido etay jon-u tan.

Sen dunyoda yagona,
G'amxo'r ota va ona.
Boshimizni silaysan,
Har yon bo'lib parvona.

Bag'ring misli gulbahor,
Ne istasak unda bor.
Barkamol yosh avlodning,
Yashar doim baxtiyor.

Bulbuling ham qish-u yoz,
Madhing kuylab chertar soz.
Men ham seni, ey Vatan,
Qancha sevsam shuncha oz.

HOZIRJAVOB BOLA



Ko'chada bir bolakay,
Yig'lar edi bo'lib xun.
Yo'lovchi chol unga der:
- Yosh to'kasan, ayt, nechun?

- Ming so'm pulim bor edi,
- Bola titrar so'z qotib.
- Kelayotsam, qaydadir
Qo'ydim uni yo'qotib.

- Shunga shuncha yig'imi?
Boshin silab so'rar chol.
Yondan mingni chiqarib,
Berar ekan u darhol.

Pulni ushlab qo'lida,
Bola battar yig'ladi.
Yuzin yulib, timdalab,
Yurak-bag'rin tig'ladi.

Tajang bo'lib javrar chol:
- Pulni olding, bo'l-da shod.
Nega yana yig'laysan,
Chor-atrofga solib dod'!

Javob qilib bolakay,
Ko'zi yoshga to'lardi:
- Yo'qolmaganda pulim,
Ikki ming so'm bo'lardi.

MEHRIBONIM

Kulib shirinso'z aytar,
Bor shodlik menga qaytar.
Quvontirar chunonam,
Bu inson - mening onam.

Borligidan ko'nglim to'q,
Usiz go'zal olam yo'q.
Mehri bilan baxtliman,
Dilda zarra nolam yo'q.

Biron yoqqa otlansa,
Kelishin zor kutarman.
Onam qadrin bayroqday,
Boshda baland tutarman.



Bahora MA'MIROVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi
6-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

QORAQALPOQ YOSHLARI

Gul-u bo'stonlari ko'p,
Vatanim O'zbekiston.
Sevib tuprog'ini o'p,
Yurtim erur - jonajon.

Qoraqalpoq yoshlari,
O'z yurtini ardoqlar.
Seni bilganim sari,
Qadamlarim jonlanar.

Sarvinov NARBAYEVA,
Qoraqalpoq'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi
28-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi

ONAMIZSAN, TABIAT



Jonajonim tabiat,
Sen bizning onamizsan.
Butun dunyo bir hovli,
Obod, hur xonamizsan.

Ko'ngillarga xush yoqar,
Sening nurli iforing.
Gullar eksak ketadi,
Dilingdagi g'uboring.

Onamizsan, tabiat,
Ko'taramiz mag'rur bosh.
Har tongda ko'z ochganda,
Porlab chiqadi quyosh.

Elbek USMONOV,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
327-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

CHAQQON MOHLAROV

(Dugonamga)

Oilada bosh farzand,
Doim mehnat bilan band.
Onasiga yondosh qiz,
Mohlarov ko'ngli shod qiz.

U judayam mehribon,
Hammamizga qadrdon.
Darsdan qolmas hech qachon,
Chunki u epchil, chaqqon.



Mardonaxon SAIDUMAROVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi
33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



RITOBXON QIZ

Nasibaning quvonchi ichiga sig'masdi. U uyiga tezroq kirib borishga oshiqardi. Hovli yo'lagi bo'ylab yurarkan, onasi Mo'tabar opa qizini qarshi oldi.

- Tanloving nima bo'ldi? O'h-ho', qo'lingdagi sovg'ami? - dedi xushxabarni sezgandek kulimsirab.
- Aya... ayajon! Meni tabriklang! Yosh kitobxonlar tanlovida tuman g'olibi bo'ldim. Sovg'a ham berishdi,
- deya qo'lidagi yaltiroq qog'ozga o'ralgan qutichani onasiga uzatdi.

- Keyin... faxriy yorliq bilan ham taqdirlashdi.
Shunday deya Nasiba ho'l bo'lmasligi uchun charm kurtkasi ichiga solgan faxriy yorliqni ham g'urur bilan ko'rsatdi.

- Shunday katta yutuqqa erishdingmi-a, qizim?! - Mo'tabar opa hayajon va mehr bilan qizini quchdi. Shu damda onaizorning xayolidan nimalar kechmadi deysiz... Balki shu tobda ko'p mutolaaga berilgani uchun qizini parishonxotirlikda ayblagan kunlari yodiga tushgandir.

«Hadeb kitob o'qiyverasan, qizim! Xayolparast bo'lmay, uydagi yumushlarni vaqtida bajarishni ham unutma», degan gaplarni Mo'tabar opa ko'p bora aytgan.

... O'sha kuni kechqurun mahalladagi Iqboljon degan ayol avzoyi buzuq bir holatda ularning hovlisiga kirib keldi. Mo'tabar opa uning bu odatini bilgani uchun biror noxushlikni sezib:

- Ha-a, aylanay, tinchlikmi? - deya oldi.

- Tinchlikmi? Tinchli-ik... Opa, shu desangiz bugun molingiz bizning tomorqaga kirib, ancha ekinlarimizni payhon qilibdi.

Bu ayol bilan gap talashish behudaligi uchun ham Mo'tabar opa past tushdi.

- Mayli, singlim... Ayb bizda bo'lsa... Ikkinchi takrorlanmaydi, - deya ming bora uzr so'rab, yaxshilik bilan ayolni ko'chaga kuzatdi.

O'sha kuni mollarni dalaga qizlari Nasiba va Feruza haydab borgandi.

- Nega mollarga qaramadinglar?! Axir uyimizga shikoyat bilan biron bekorga kelmaydi-ku, - Mo'tabar opa ro'parasida boshini quyi solib turgan qizlariga tanbeh berdi.

- Aya... Men o'yinga berilib ketibman, - dedi kichkina Feruza.

- M-men... men... kitobga qiziqib, molga qarashni unutilman. UZR... - deya oldi Nasiba.

Hozir shunday o'ylarni Mo'tabar opa dahliz derazalarini tashqaridagi yomg'ir savalayotgan bir asnodda xayolidan o'tkazdi.

- Qizim, tuman tanlovida qanday... qanday qilib g'olib chiqding? - qalbi faxrga to'lgan ona bu haqda ko'p narsa bilgisi kelardi. Nasiba ham shuni sezganday:

- Aya... ayajon, tanlovdagi barcha savollarga to'g'ri javob berib, eng yuqori ball oldim. Hakamlar hay'atidagilar ham xursand bo'lib, «Barakalla, qizim, bundan keyin yanada ko'proq mutolaa qilishing kerak. Endi viloyat tanlovida tumanimiz sharafini himoya qilasan, shuni unutma», deyishdi, - dedi quvonchini ichiga sig'dirolmay.

Ona shu dam kitobga mehr qo'ygan farzandiga tikilar ekan, ich-ichidan kitobxon qizi bilan faxrlandi.

Ulug'bek MUSTAFO

SUZISHDAN HARATEGA...

Buxoro viloyatining chekka hududlaridan birida joylashgan ta'lim muassasasiga kirib kelar ekansiz, yo'lakda jilmayib turgan qizlar suratiga ko'zingiz tushadi. Ular go'yo sizni kulib qarshi olayotgandek tuyuladi. Bu qizlar orasida barcha uchun birdek qadrdon o'quvchi Nodiraning ham rasmi bor.

Nodira Mahamatova Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanidagi 8-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi. 5 yoshidan boshlab «Neftchi» sport-sog'lomlashtirish majmuasida suzish bilan shug'ullangan Nodira 2011-yildan boshlab sportning «Shotokan karate-do» turi bo'yicha saboq oladi. Qisqa muddat ichida bir qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.



Sportchidan erishgan yutuqlari haqida so'raganimizda, imyanibgina diplom va faxriy yoriqlariga ishora qildi. Yigirmaga yaqin medallar shodasini ko'rib, unga havasimiz keldi.

Ayni damda Nodira O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. Uning bu muvaffaqiyati yurtimiz mustaqilligining 23 yilligi arafasida qo'lga kiritilganligi bois, yurtimiz to'yiga tuhfa, deb biladi.

Bugungi kun qizlariga o'rnatilgan bo'ladi qorovulbozorlik sportchining kelgusi ishlarida zafarlar tilaymiz!


Husanboy Abdullayev Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-sinfida ta'lim oladi. Yaqindagina 15 yoshni qarshi olgan o'quvchi besh yildan beri sportning qo'ljangi turi bilan shug'ullanib keladi.

BARAKALLA, HUSANBOY!

Dilkushodlik sportchi o'tgan vaqt davomida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'tgan yillarda 45 kg. vazn toifasida respublika birinchiligida 1-o'rinni qo'lga kiritgan Husanboy 2014-yilda poytaxtda o'tkazilgan ochiq turnirda 50 kg. vazn bo'yicha birinchilikni hamda Farg'onada o'tkazilgan respublika birinchiligida ushbu vazn toifasida 1-o'rin sohibi bo'ldi.

Oilada to'rt nafar farzandning kenjatoyi bo'lgan sportchi xalqaro musobaqalarga tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

Omad yor bo'lsin, Husanboy!



NAFOSAT malikasi

Ruxshona Muyassarqulova Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahridagi 6-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf a'lochisi. Adabiyotni sevadigan o'quvchi shu kungacha ko'plab badiiy kitoblarni mutolaa qilgan.

Raqs san'ati uning jon-u dili, ta'lim muassasasida barcha fanlarni a'loga o'zlashtirish bilan birga, musiqa va san'at maktabining xoreografiya sinfidagi ham tahsil oladi. Shuningdek, bo'sh vaqtlarida badiiy gimnastika to'garagi mashg'ulotlariga muntazam qatnashib boradi.

Hali boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lgan sportchi ilk zafarlarga erishishga-da ulgurdi. U o'tgan yillar mobaynida «Miss Alina» sport musobaqasi viloyat bosqichida 3-o'rinni egalladi.

2014-yil Yangiyer shahrida badiiy gimnastika bo'yicha «Kamalak g'unchasi» shiori ostida o'tkazilgan musobaqada 1-o'ringa loyiq topildi.

Ruxshona navbatdagi chorakni ham a'lo baholarga tugallash niyatida. Nafosat malikasiga yuksak parvozlar tiladik.

Zarnigor MUSAYEVA

YOSH SHAXMATCHILAR BAHSI

Toshkent shahrida 8 va 10 yoshli o'smirlar o'rtasida shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Respublikamiz viloyatlaridan 100 nafardan ziyod sportchilar ishtirok etgan musobaqada 8 yoshgacha o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda Islombek Sindorov birinchi turda qashqadaryolik Asomiddin Muhiddinovni mag'lubiyatga uchratdi. Shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni Oqjo'l Rahmatullayev ham dastlabki partiyada Ashurov ustidan g'alaba qozondi. Qizlar o'rtasida Samarqandlik Ruxshona Rahimberdiyeva, farg'onalik Vasila Abdujabborova hamda Toshkent, Sirdaryo, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari vakillaridan iborat 8 nafar sportchi birinchi turni o'z foydasiga hal qildi.

Javohir Sindorov 10 yoshgacha o'g'il bolalar o'rtasida qoraqalpog'istonlik Lochinbek Mamajonovdan g'olib keldi. Mazkur bahsda yana o'n ikki nafar shaxmatchi g'alaba qozonib, olti nafari durang o'ynadi. Qizlar bahsida esa 15 nafar shaxmatchi dastlabki ochkoni qo'lga kiritishdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

MAKTABDA BOKS TO'GARAGI

Ohangaron tumanidagi yangiqishloqlik Aziz Abdujabborov o'zi o'qigan maktabida boks to'garagi ochdi. Gulobod mahallasidagi 2-, Yangiqishloq mahallasidagi 9-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan iborat 25 nafar to'garak a'zolari qisqa fursat ichida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishdi.

tug'ilgan o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Javohir Xudoyberdiyev, Ahror Suyunboyev hamda Bunyod, Muhammad o'z vazn toifalarida 1-o'rin sohiblari bo'lishdi. O'tgan yilning dekabrda Olmaliqda bo'lib o'tgan respublika miqyosidagi Kasaba uyushmasi kubogida Ahror va Javohir o'z vazni bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Endilikda bu showvozlilar 12-17-fevral kunlari Angren shahrida bo'lib o'tadigan «Umid nihollari» musobaqasining viloyat bosqichiga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Omad sizga, ohangaronlik bokschilar!

N. JAVHAROVA



Gulobodlik 8-sinf o'quvchisi Islom Boymurodov, 7-sinf o'quvchisi Javohir Xudoyberdiyev, yangiqishloqlik 7-sinf o'quvchisi Ahror Suyunboyev, 9-sinf o'quvchilari Muhammad Abdurahmonov hamda Bunyod Qidirboyev faol to'garak a'zolari hisoblanishadi.

Birgina o'tgan yilning o'zida sportchilarning erishgan g'alabalariga to'xtaladigan bo'lsak, Islom 2000-2001-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi viloyat birinchiligida 1-o'rinni egallab, Olmaliq shahridagi respublika chempionatida qatnashib, 3-o'rin sohibi bo'ldi. Shuningdek, Chirchiqda Vladimir Juravlyov xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda ham sovrinli o'rinni egalladi.

Yurtimiz mustaqilligining 23 yilligiga atab 2000-2001-yilda

O'SADIGAN BOLA

Yoshligimda bo'yimni o'lchab turish uchun bobom bog'ga ekan ko'chatlardan birini belgilab oldim.

Bu ko'chatning o'rta qismidagi chandiq mening boshim bilan teng, bir metr-u 30 santimetr chiqdi. Uni belgilab qo'ydim. Oradan yana bir oy o'tdi. Bo'yimni o'lchasam, bu gal belgidan pasayib qolibman. Rosa yig'ladim. Ha, oyimning gapiga kirmay ovqat yemaganimga shunday bo'lgan, deb o'yladim. Xafa bo'dim.

Bobom shunda: - Axir nihollar o'sadi-ku! - dedilar.

Keyin menga oyim, kattalarning gapiga, albatta, quloq os, deb nasihat qildilar.

- Kimda kim o'qisa, izlansa, ota-onasidan, xalqidan duo olsa, albatta, bo'yi o'sib



yuksaladi. Buning uchun, bolam, doimo savob ish qil, shunda o'smay qolmaysan, - dedilar. Ha, o'sadigan bola shunday bo'lishi kerak ekan.

Xiyola YO'LDOŠEVA,
Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

KAMAZ:

Bizga qilishar havas,
O'zin qiyoslaydi «MAZ».
Zil-zambil yuklar tashish,
Hammaga ham osonmas.



DAMAS:

Xizmatdamiz odamga,
Qulaymiz «Tez yordam»ga.
Kimilar-chun taksi «Damas»,
Demang, bizni indamas!
Kim uchun go'yo «ombor...»,
Hali hisob-kitob bor.



KOBALT:

Ichim, tashim baquvat,
Ko'rkamdirman hamma vaqt.
Rulim ushlar qanday baxt!
Sizni kutgan men - Kobalt.



LASETTI:


Olisni yaqin aylab,
Turibmiz rulni shaylab.
Bir, ikki, uch... yetti...
Uloq bizlarda ketdi.



Abdulla AYIZOV

O'YIN-TOPISHMOQ

Qorong'uda qoldingiz.
Qo'lingizda sham va fonus bor.
Eng avval nimani yoqasiz?



Dunyodagi harf
soni nechta?

U xonada - xona unda.




Mashhura ABDUG'AFFOROVA,

Sirdaryo viloyatidagi 52-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

«SPORT» aylanma skanvordi



Tuzuvchi: Husan ORIPOV

16-fevral 2015

Paranda qizga!

QAYMOQLI TORT



Kerakli masalliqlar: 1 quti vanilin, 200 gramm sariyog', 2 dona tuxum, 500 gramm smetana, 1 oshqoshiq kakao, 1 choyqoshiq iste'mol sodasi, 2 stakan shakar, 3 stakan un, maydalangan yong'oqlar.

Krem uchun: 1 stakan shakar, 500 gramm smetana, vanilin.

Tayyorlanishi: tuxum shakar bilan yaxshilab ko'pirtiriladi. Ko'pirtirish jarayonida sariyog', so'ndirilgan iste'mol sodasi, yong'oq va un ketmaketlikda asta-sekin solinadi. Qaymoq quyulganda jarayon to'xtatiladi. Xamir ikkiga bo'linadi. Bir qismiga kakao qo'shiladi va har ikki qismi gaz pechida o'rtacha olovda 20-30 daqiqa davomida pishiriladi.

Krem tayyorlash uchun smetana shakar bilan ko'pirtiriladi va vanilin qo'shiladi. Tortning korjariga krem surtilib, yong'oq bilan bezatiladi. Qaymoqli tort tayyor bo'ldi. Endi uni dasturxonga tortsak ham bo'ladi.



NARGIZA tayyorladi

8



Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 46228
Buyurtma - S 2142

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumati
qarashi bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.